



**Qashqadaryo viloyatining
sanoat ishlab chiqarishi
2023- yil yanvar - aprel oylari
(dastlabki ma'lumot)**




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari


Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 5 492,8 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 61,2 % ni tashkil etdi.



2023- yilning yanvar-aprel oylarida Viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Nishon tumani (31,9 %), G'uzor tumani (14,5 %), Qarshi shahri (11,4 %), Kasbi tumani (7,4 %) hamda Qarshi tumani (5,8 %) hissasiga to'g'ri keldi.



yanvar-aprel oylarida yirik korxonalar bo'yicha (O'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)



Ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish


| Sanoat mahsulotlari | 2022-yil yanvar-aprel | 2023-yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|----------------------------|--------------------------|--------------------------|--------------|
| Chaqiq tosh ming t. | 7,3 | 16,5 | 9,2 |
| Neft, ming t. | 6,8 | 3,6 | -3,2 |
| Tabiiy gaz, mln. kub.m | 234,9 | 28,4 | - 206,5 |
| Gaz kondensati, ming t. | 38,1 | 35,2 | - 2,9 |

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoat korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

| Dizel yoqilg'isi | Paxta linti | Kaliy xlorid |
|-----------------------------|-------------|-------------------------------|
| 2023 2893,0m. | 2023 126,7 | 2023 114,8 |
| 2022 3,1m. | 2022 46,9 | 2022 89,7 |
| 2021 16,7 | 2021 99,9 | 2021 99,4 |
| O'simlik yog'i (tozalangan) | Oltingugurt | Yumshoq bug'doy va spelta uni |
| 2023 26,9 | 2023 88,2 | 2023 36,5 |
| 2022 148,6 | 2022 90,8 | 2022 94,7 |
| 2021 76,7 | 2021 110,5 | 2021 97,2 |

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2022- yilning yanvar-aprel oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 16,4 % (22,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 5,2 % (1,9 %), quyi texnologiyali 39,3 % (45,0 %) ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 0,5 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 82,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,02 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 2,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 44,2 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,1 %) ga to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoat korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,3 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 27,2 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 85,2 %)ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 107,0 ming tonna dizel yoqilg'isi (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 2893,0 m.), 16,4 ming tonna kalava ip (118,0 %), 695,1 ming litr aroq mahsulotlari (87,7 %) hamda 17,1 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (36,5 %) ishlab chiqarilgan.

| Sanoat mahsulotlari | 2022-yil yanvar-aprel | 2023-yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|--|-----------------------|-----------------------|-----------|
| Dizel yoqilg'i ming t. | 0,04 | 107,0 | 106,96 |
| Paxta chigiti ming t. | 34,9 | 47,8 | 12,9 |
| Kalava ip ming t. | 10,8 | 16,4 | 5,6 |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t. | 46,9 | 17,1 | - 29,8 |
| Paxta tolasi ming t. | 23,6 | 27,4 | 3,8 |

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho'yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho'yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo'shgan holda super qotishmalar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,02 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,8 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 1,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish turlarini o'z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o'rnatiladigan qoplamlar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,6 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 120,8 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 412,5 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,3 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 105,8 % ga va ishlab chiqarish hajmi 1 013,6 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,5 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 98,8 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 48,4 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qmachilik mahsulotlariiga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoating ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 24,4 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 102,9 % ga pasayib, ishlab chiqarish hajmi 2 186,1 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qligan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-aprel oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,5 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 110,2 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 223,2 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 16,3 %ni o‘tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 103,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 466,8 mlrd. so‘mni tashkil etgan.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o‘z ichiga oladi. Lekin bu bo‘limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 154,6 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 30,0 mlrd. so‘m kuzatildi.



Mashina va uskunalaridan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

Mashina va uskunalaridan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – “toza metallardan aralashmasiz” buyumlar ishlab chiqarish (jumladan, ehtiyoq qismlari, konteynerlar va moslamalar), odatda statsionar, faqat elektr, elektron yoki optik asboblar uchun radiopriborlar, uzatish moslamalari kabi, ko’rsatilgan metallar (ba’zida boshqa metallar bilan) va ancha murakkab birikmalar qotishmalarini ishlab chiqarishni o’z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko’ra, mashina va uskunalaridan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,3 % ni, o’tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 50,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 22,5 mlrd. so’mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish – yo’lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o’z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o’z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko’ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,02 % ni, o’tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 46,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1,9 mlrd. so’mni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish 70,8 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 106,6 % ni tashkil etdi.


| Sanoat mahsulotlari | 2022-yil yanvar-aprel | 2023-yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|--------------------------------|-----------------------|-----------------------|-----------|
| Elektroenergiya, mln.kVt.s | 3 754,9 | 2 748,8 | - 1 006,1 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 1 094,3 | 1 166,0 | 71,7 |

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Elektroenergiya



Issiqlik energiyasi



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 130,6 % ga hamda oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 87,5 % ga kuzatildi.


| Sanoat mahsulotlari | 2022-yil yanvar-aprel | 2023-yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|---|-----------------------|-----------------------|-----------|
| Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm | 4,1 | 3,6 | - 0,5 |
| Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar mlrd.so'm | 16,9 | 33,9 | 17,0 |

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar



Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 1 536,8 mlrd.so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 114,7 %, uning jami sanoatdagi ulushi 17,1 % ga to'g'ri keldi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



65,3 %
2023-yil
yanvar-aprel



64,2 %
2022-yil
yanvar-aprel



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 65,3 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 34,7 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 64,2 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 35,8 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 117,6 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 111,8 % ga to'g'ri keldi.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 961,8 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 17,6 % ga oshdi.

2022- yilning shu davriga nisbatan viloyat bo'yicha o'rtacha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Mirishkor tumani (164,1 %), Muborak tumani (116,0 %) hamda Qarshi shahar (159,9 %) korxonalarini tomonidan yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar



35,8 %
2022-yil
yanvar-aprel



34,7 %
2023-yil
yanvar-aprel

